

## **MAKTABGACHA TA”LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING JAMIYAT MA’NAVIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI**

*Nasriddinova Feruza Abduvoxidxo'jayevna*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha talim sohasidagi islohotlar, bu soha uchun malakali kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, maktabgacha ta’lim, bola, tarbiyachi, xulq-atvor, ta’lim-tarbiya, yosh davrlari psixologiyasi

**Аннотация.** В данной статье подробно анализируются реформы в сфере дошкольного образования в Республике Узбекистан, процессы подготовки и повышения квалификации квалифицированных кадров для этой сферы.

**Ключевые слова:** система образования, дошкольное образование, ребенок, педагог, поведение, воспитание, психология молодежи.

**Abstract.** In this article, the reforms in the field of preschool education in the Republic of Uzbekistan, the processes of training and upgrading of qualified personnel for this field are analyzed in detail.

**Key words:** educational system, preschool education, child, teacher, behavior, education, psychology of youth

Bugun har bir sohaga alohida e'tibor berilayotgan, tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davlatimizda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu borada kadrlar tayyorlashga ularning nazariy va amaliy bilimlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar olib bormoqdalar. Xususan, "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib -intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak " deb nomlangan risolada bunga alohida e'tibor berib shunday deganlar: -Maktabgacha ta'lim sohasida tasdiqlangan

dasturga ko'ra muassasaning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek tajribali pedagog va mutaxassislarni jalg qilgan holda o'quv reja va dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish kerak. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tarbiyalash, bo'yicha murakkab vazifalar turibdi». [1.] Shunday vaziyatda tarbiyachilarimiz o'z burch va vazifalarini to'laqonli anglab, ishlarga ma'suliyat bilan yondashib, har bir tarbiyanaluvchiga O'zbekiston kelajagi, ravnaqi deb qarashlari, ularning qalbiga vatan tuyg`usi, yurt ravnaqi, milliy g`oyalarni singdirmog`i lozim. Yana tarbiyachilarimiz bolaning axloqi, tarbiyasi hulqi uchun ham mas`ul hisoblanadilar. Axloq, odob har qanday vaziyatda, har qanday vaqtida ota- bobolarimiz uchun ham birinchi masala hisoblangan. Jumladan, bu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlarini o'rinali deb o'ylayman. «Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak – tanni pok tutmakm yosh vaqtidan maslakni tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'stirmak lozim; Tarbiya qiluvchilar tabib kabitdir, tabib kasalni badanidagi dardga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudiga «Yaxshi xulq» degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berib katta qilmak lozimdir». [2.] Zeroki bu fikrlarni amaldagi ijrosi charog'on keljak sari bolani yetaklamog'i va bularni murg'ak qalblarga xuddi shu maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan, oiladan singdirilsa ta'limning keyingi bosqichlarida yosh avlod qalbida yanada ildiz otadi. Bundan tashqari tarbiyachilarimiz bolaning salomatligi kun tartibining to'g'ri rejorashtirilganligi, sanitariya gigiyenasiga ham ma'sul hisoblanishadi. Chunki to'g'ri ovqatlanish, yetarli sog'lomlashtirish chora-tadbirlari, bola o'sib rivojlanishida juda ahamiyatlidir. Yuqoridagilarni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi avlod salomatligiga jiddiy yondashish va ularni sog'lom kelajagini ta'minlash bo'yicha chora tadbirlarni muvofiqlashtirish say-harakatlarini olib bormoqda. Buning dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tafbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli qarori tasdiqlandi. Bu qarorning bandlari juda keng qamrovli bo'lib, Matabgacha ta'lim

muassasalarining barcha jihatlarini qayta o'rganib rivojlantirishga xizmat qilmoqda, Bugungi kunimizda Matabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy mahorati haqida gap ketar ekan ularga kasbiy tajriba bilan birga chuqur bilim, ko'nikmalar ham zarur. Masalani shu jihatlarini hisobga olgan xolda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha 5 ta davlat pedagogika instituti, ta'lif sohasida faoliyat yurituvchi hodimlarning malakasini oshirish bo'yicha 14 ta hududiy institut faoliyat ko'rsatmoqda. Tarbiyachilar, o'qituvchi pedagoglar davlatimiz tomonidan belgilangan tartib bo'yicha har 5 yilda malaka oshirish institutlarida ta'lif olib, ta'lif sohasida bo'layotgan eng so'nggi, jahon andozasidagi pedagogik uslublarni o'rganishlari va uni amalda joriy qilishlari lozim. Yuqorida aytib o'tgan jarayonimiz ham albatta ta'lif sifatini oshirishga xizmat qiladi, shu bilan birga davlatimizda 2018-yilda barcha soha kadrlarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'lif muassasalari kadrlariga ham maxsus sirtqi ta'lif olish imkoniyatlari davlatimizning deyarli barcha universitetlarida ochildi. Bu ham maktabgacha ta'lif muassasaning faoliyatiga bo'lgan e'tibor va kadrlarning faoliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan davlatimizning sa'y-harakatlaridir.

Tarbiyachilarga qo'yilgan talablar nechog'lik ko'p, ma'suliyat yuqori bo'lishi bilan bir qatorda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi №-10-sonli «Davlat maktabgacha ta'lif tizimi xodimlarining mehnatiga haq to'lsh tartibini takomillashtirish tog'risida»gi qarori imzolandi.

Oliy organlarimizning qaroriga mivofiq «Davlat maktabgacha ta'lif tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lsh va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom» qabul qilindi. Bu qaror va nizomlar orqali davlatimiz hodimlarni moddiy rag'batlantirish ularni mehnatga layoqatini oshirish kabilarni ko'zlagan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki Yurtboshimiz olib borayotgan bunday yuksak targ'ibotlar zamirida ertangi kunimiz egalari bo'lgan yosh avlodga bo'lgan e'tibor, ularning porloq kelajagi qayg'usi bilan birga yurt qayg'usi yotadi, Shunday vaziyatda har bir pedagog o'z ishiga

vijdonan, ma'suliyat bilan ish yuritishi, Davlatimizning kelajagi, uning dunyo miqyosidagi o'rni, yuksak salohiyatlari farzandlari taqdiriga befarq qaramasliklari lozim.

Prezidentimizning quyidagi fikrlari maktabgacha ta'lim muassasalarining kadrlarni yanada ogohlilikka undaydi «Maktabgacha ta'lim sifati-ertangi klinikni hal qiladigan masala. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish faqatgina yangi tashkil etilgan vazirlikning vazifasi emas, barchamizning eng muhim vazifamiz bo'lishi kerak.

Shu o'rinda aytib o'tishimiz lozimki, O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 30-sentabrdagi «maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-51-98 sonli farmonida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil qilish uning samarali faoliyatini takomillahtirish to'g'risidagi farmonlarini amalda joriy qildi.

O'ylaymanki, tarbiyachilarimiz vatanimiz ertasi bo'lmish bolalariga ta'lim, tarbiya bilim ko'nikma berishda hech qachon adashmaydilar. Zero, alloma bobomiz A.Avloniy aytganidek tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

- 1.Mirziyoyev Sh. Tanqidiy-tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-Toshkent: O'zbekiston,2017. -B. 47.
- 2.Toxir Malik. Saodat saroyining kaliti-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. -B.25.